



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

KASBIY TA'LIMDA KADRLAR SALOHIYATI VA UNI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

Yusupova Moxigul Suyunovna

Qashqadaryo viloyati Qarshi tumani

Agrosanoat texnikumi direktori

Annotatsiya:

Mamlakatimizda kasbiy ta'lim tizimida yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, o'quvchilarda yetarli ko'nikmalarni shakllantirish, iqtisodiyot tamoqlarida har bir soha uchun kadrlar tayyorlash infratuzilmasi yaratilmoqda. Bunda har bir tarmoq o'z yo'nalishi bo'yicha o'rta bo'g'in kadrlariga buyurtmalar portfelini shakllantirishi, investitsiya loyihalari asosida yaratiladigan ish o'rinnari uchun talab etiladigan hamda yangidan ichki mehnat bozoriga kirib kelayotgan yangi kasblarni shakllantirishi lozim.

Kalit so'zlar: kasbiy ta'lim, malakali kadr, kasbiy ta'lim platformasi, dual ta'lim, raqobatbardoshlik, xalqaro tajriba, salohiyat.

Annotation:

In our country, an infrastructure for the effective use of opportunities created in the system of professional education, the formation of sufficient skills in students, training of personnel for each area of the economy is being created. In this, each network should form a portfolio of orders for personnel of the middle division in its direction, form new professions that are required for jobs created on the basis of investment projects and are entering the domestic labor market anew.

Keywords: professional education, qualified cadre, professional education platform, dual education, competitiveness, international experience, capacity.

KIRISH

Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda 2024 -yil 16-



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th February, 2025

oktyabrdagi “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilinishi kasbiy ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi, deb baralla aytishimiz mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozori uchun kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlash tizimi transformatsiyasining asosiy mezonlaridan biri mehnat bozori va kasbiy ta’lim xizmatlari o‘rtasida chambarchas bog‘liqlikni ta’minlashdan iborat. Bu borada malakali kadrlar tayyorlash holati va rivojlanish tendensiyalari hamda mehnat bozoriga o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash va ularni ish bilan ta’minlash mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda mehnat bozori talablariga ko‘ra malakali o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashda ta’lim sohasining xalqaro ta’lim tizimi bilan o‘zaro uyg‘unlashuvni bitiruvchilar malakasini xalqaro mehnat bozorida ham tan olinishiga olib keladi. Bu o‘sib borayotgan aholimizni ish bilan ta’minlashda ustuvor vazifalardan biri sanaladi. O‘z navbatida, yangi kasbiy ta’lim tizimi kambag‘allikni qisqartirish uchun qilinayotgan ishlar bilan o‘zaro hamohanglikni ta’minlab, zamonaviy kasb egallagan aholi qatlaming daromad topish imkoniyatini tizimli yaratib beradi.

Ayni shu maqsadlarda mazkur farmon bilan kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi. Ular orasida kasbiy ta’lim tashkilotlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta’limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko‘p tarmoqli ta’lim tashkilotlari tizimini joriy qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish, zamonaviy boshqaruв tizimini joriy qilish hamda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratilmoqda.

O‘quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta’lim dasturlarini joriy qilish, o‘qitish yakuni bo‘yicha beriladigan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishiga erishish muhim yo‘nalishlardan biridir. Bundan tashqari, tizimni bosqichma-bosqich raqamlashtirish orqali o‘quv jarayonlarini takomillashtirish, maxsus elektron platformalar tatbiq qilish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

choralar ko‘rilmoxda. Bitiruvchilarining ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash orqali esa ish beruvchilar talablariga to‘la mos keladigan kadrlar tayyorlash maqsadi qo‘yilgan.

Shu bilan birga, kasbiy ta’lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta’limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan 600 ta texnikum tashkil etildi. Ularda kadrlarni tayyorlash bir necha muhim talablarga mos ravishda tashkil etiladi. Avvalo, Ta’limning xalqaro standart tasniflagichi va O‘zbekiston milliy malaka tizimi talablariga mos ravishda amalga oshiriladi. Boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, malaka va kompetensiyalar bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslari tashkil etiladi. Boshlang‘ich kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha kadrlarni tayyorlash umumiy o‘rta ta’limning 9-sinfini tamomlagan o‘quvchilar uchun davlat granti asosida, kamida umumiyligi o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan boshqa talabgorlar uchun to‘lov-kontrakt asosida, o‘rta va o‘rta maxsus kasbiy ta’lim dasturlari bo‘yicha esa davlat granti va to‘lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Xorijiy tajribalarni puxta o‘rgangan holda, 2021-yilda kasbiy ta’lim tizimiga Germaniya tajribasi asosida dual ta’lim shakli joriy etilgani ijobjiy natijalarini ko‘rsatgani bois, kasbga o‘qitish tizimini shu yo‘nalishda takomillashtirishga oid vazifalar ham belgilandi.

ASOSIY QISM

Kasbiy ta’lim sohasida institutsional yaxlitlikni ta’minalash va boshqaruvin tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlari tayyorlash tizimini isloh qilish maqsadida:

Kasbiy ta’lim tizimini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

- kasbiy ta’lim tashkilotlari turlarini maqbullashtirish hamda kasbiy ta’limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona ko‘p tarmoqli o‘quv muassasalari tizimini joriy qilish;



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

- kasbiy ta’lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta’minlash hamda ularning iqtisodiyot tarmoqlari talablariga mos kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish;
- kasbiy ta’lim sohasida zamonaviy boshqaruvi tizimini joriy qilish, o‘rtalbo‘g‘in kadrlarini tayyorlash jarayonlariga manfaatdor vazirlik va idoralarni keng jalb qilish, ularning ta’lim tashkilotlari bilan hamkorligini kuchaytirish;
- kasbiy ta’lim tashkilotlari o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish, o‘qitish yakuni bo‘yicha beriladigan ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarning xorijiy davlatlarda tan olinishini ta’minlash;
- kasbiy ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayonlarini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, kasbiy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan maxsus elektron platformani joriy qilish;
- kasbiy ta’lim tashkilotlarini zarur o‘quv adabiyotlari, uslubiy qo‘llanmalar va raqamli kontentlar bilan ta’minlash, ularning laboratoriya va ustaxonalarini eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlash;

2025-yil 1-yanvardan boshlab mamlakatimiz kasbiy ta’lim tizimida malakali kadrlar tayyorlashning aniq reja va dasturlari belgilangan bo’lib:

- ✓ kasbiy ta’lim dasturlari kasbiy standartlar asosida ishlab chiqiladi hamda kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashlari, tadbirkorlik subyektlari birlashmalar, yirik ish beruvchilar va uyushmalar bilan kelishilganidan so‘ng amaliyotga kiritiladi;
- ✓ bitiruvchilarni yakuniy baholash soha ekspertlari, kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashlari, baholash tashkilotlari, ish beruvchilar, uyushmalar va tadbirkorlik subyektlari birlashmalar vakillari ishtirokida demonstratsion imtihonlar shaklida amalga oshiriladi;
- ✓ kasbiy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilariga davlat namunasidagi hujjatlarni berishning yagona tartibi joriy etiladi. Bunda kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirgan shaxslarga — diplomlar, qisqa muddatli kurslar bitiruvchilariga — o‘qigan moduliga qarab tegishinchalik kompetensiyani (malakan) egallaganlik to‘g‘risidagi sertifikatlar beriladi;



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Kasbiy ta'lim rivojlangan mamlakatlarda kadrlar tayyorlash bevosita ish beruvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda nazariy bilimlar ta'lim muassasalarida, amaliy ko'nikmalar esa korxona va tashkilotlarda o'rnatiladi.

Endi mamlakatimizda beriladigan malakalar tashqi mehnat bozorida tan olinishi bilan bog'liq qadamlar tashlandi. Yangi tashkil qilingan texnikumlarda bosqichma-bosqich xalqaro ta'lim dasturlari joriy qilinadi. O'rta bo'g'in kadrlariga talab Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Kasbiy ta'lim" platformasi orqali shakllantirilishi yo'lga qo'yilmoqda. Ya'ni: 2026-yil 1-yanvardan boshlab o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan talab Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "Kasbiy ta'lim" platformasi orqali shakllantiriladi.

Qabul jarayonini ish beruvchilar talabi va hududlarning ixtisoslashuvi asosida shakllantirish ham muhim. Xorijiy tajribaga nazar soladigan bo'lsak, Buyuk Britaniyada mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojni aniqlashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, innovatsion rivojlanish natijasida ishlab chiqarish jarayonidagi o'zgarishlarning mehnat bozoriga ta'sirini inobatga oladi.

Germaniyada esa mamlakat mehnat bozorining yuqori va o'rta bo'g'in kadrlariga bo'lgan ehtiyojini baholashda turli mutaxassisliklar kesimida yaxlit iqtisodiyot tarmoqlari, jumladan, hududlar miqyosida makroiqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari rivojlanishiga oid ilmiy asoslangan prognoz ko'rsatkichlarga tayaniladi. Yaratiladigan yangi ish o'rnlari uchun talab etiladigan kasbiy va til bilish ko'nikmalariga bo'lgan talabni o'rganib borish, kadrlarni oldindan tayyorlash mexanizmini joriy etish muhim omil hisoblanadi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining ko'nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini tubdan yangilash, ushuu jarayonda ish beruvchilar vakillari faol ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish ham muhim vazifalardan biridir.

XULOSA

Dunyo tajribasida kasbiy ta'limni rivojlantirish kambag'allikni qisqartirish va yoshlarning munosib kvalifikatsiyalarga ega bo'lishida muhim tizim hisoblanadi.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Ayni maqsadlarni inobatga olgan holda joriy yil 16 oktyabrda “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish asosiy vazifalardan biridir.

Global ta’lim muhitini shakllantirishda uning uzluksizligi va uzbekligi, sifatini ta’minalash, ijodiy rivojlanishga yo’naltirish alohida ahamiyat kasb etadi, deya fikrini boshladi vazir. – Professional ta’lim muassasalari – kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlardan iborat bo‘lib, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining 4-, 8-, 1-, 5- va boshqa bandlarini ro‘yobga chiqarishda kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlashning ahamiyati yuqori. Shu maqsadda tizimda amalga oshirilgan ishlar o‘rganib chiqildi, xalqaro ekspertlarning fikrlari olinib, sohani rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha Prezidentimiz belgilab bergen yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.

Natijada kasbiy ta’limda institutsional yaxlitlikni ta’minalash va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish, xalqaro ta’lim dasturlarini joriy etish hamda ichki va tashqi mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlashga kirishildi.

Kasbiy ta’limda malakali kadrlar: muhim omil

Kasbiy ta’lim – bu har qanday jamiyatning mustahkam poydevoridir. U insonlarga mustaqil hayot kechirish, jamiyatga foyda keltirish va o‘z orzularini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni beradi. Bu jarayonda esa malakali kadrlar muhim rol o‘ynaydi.

Malakali kadrlar degani nima?

Malakali kadr – bu o‘z sohasida chuqur bilim va keng ko‘lamli amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassisdir. U nafaqat nazariy bilimlarga ega bo‘lishi, balki bu bilimlarni amaliyotda qo‘llash, muammolarni echish va innovation g‘oyalarni yaratish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi kerak.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

Kasbiy ta'limda malakali kadrlarning ahamiyati

Ta'lim sifatini oshirish: Malakali o'qituvchilar talabalarga zamonaviy bilim va ko'nikmalarini berish, ularning qiziqishlarini rivojlantirish va kelajakda muvaffaqiyat qozonishlari uchun poydevor yaratadi.

Iqtisodiyotni rivojlantirish: Malakali mutaxassislar yangi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytirishga hissa qo'shadi.

Jamiyatning rivojlanishi: Malakali kadrlar jamiyatda ijobjiy o'zgarishlarni amalga oshirish, yangi g'oyalarni ilgari surish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilish imkonini beradi.

Malakali kadrlarni tayyorlash uchun nimalar qilish kerak?

O'qituvchilarning malakasini oshirish: O'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning bilim va ko'nikmalarini yangilash uchun doimiy ravishda ishlar olib borish kerak.

Ta'lim muassasalarini zamonaviy jihozlash: Ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv qurollari va texnologiyalar bilan jihozlash orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish: Talabalarni ishlab chiqarish korxonalarida amaliyot o'tashga jalb qilish orqali ularning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish: Talabalar va o'qituvchilarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish orqali ularning ijodiy faolligini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-158-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi. "O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlantirish va kasbiy ta'limni takomillashtirishga oid chora-tadbirlar". Toshkent, 2023-yil.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th February, 2025

3. Xodjaev, A. “Kasbiy ta’limda innovatsion yondashuvlar”. O’zbekiston ta’limi: muammolar va istiqbollar. Toshkent: O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2021.
4. Bozorov, S. A. “Kasbiy ta’lim tizimida xalqaro tajribalar”. O’zbekiston: kasbiy ta’lim va innovatsiyalar. Toshkent: Ta’lim, 2019.
5. Mavlonov, T. R. “Kasb-hunar ta’limida malakali kadrlarni tayyorlash tizimi”. Jamoat ta’limi va iqtisodiy rivojlanish. Tosh-kent, 2022.
6. Teo, S. J. “Singapur ta’lim tizimi: Innovatsiyalar va qo’llaniladigan texnologiyalar”. Singapur, 2021-yil.8.
7. Germaniya Federal Ta’lim va Tadqiqotlar Vazirligi. “Dual ta’lim tizimi: Germaniya tajribasi”. Berlin, 2018.
8. Lex.uz. “O’zbekiston Respublikasi kasb-hunar ta’limi tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi qonun va normativ hujjatlar”. 2023.